



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-mart

140-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 18-martda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida qo‘riqlash faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 4-martdagi PF–42-son Farmoni ijrosi haqida”gi 137-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmonining ustuvor maqsadlariga erishish, shuningdek, jamoat havfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida qo‘riqlash faoliyatining natijadorligini yanada oshirish, shu to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF–42-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 18-martdagi 137-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 18-martdagi 137-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF–42-son Farmoni bilan:

Milliy gvardiyaning Qo‘riqlash bosh boshqarmasi hamda uning hududiy va tarmoq bo‘linmalari Ichki ishlar vazirligi tizimiga o‘tkazilganligi;

O‘zbekiston Respublikasida Qo‘riqlash bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish maqsadida:

Milliy gvardiya qo‘mondonining o‘rinbosari - Qo‘riqlash bosh boshqarmasi boshlig‘i lavozimi qisqartirilganligi;

Ichki ishlar organlari tizimiga o‘tkazilayotgan Qo‘riqlash bosh boshqarmasi hamda uning hududiy va tarmoq bo‘linmalari tegishincha Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo‘riqlash departamenti va uning hududiy va tarmoq bo‘linmalari etib qayta tashkil etilganligi;

belgilanishicha:

Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo‘riqlash departamenti boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi;

Ichki ishlar organlari tizimiga o‘tkazilayotgan qo‘riqlash bo‘linmalari shaxsiy tarkibi uchun amaldagi pul va moddiy-texnik ta‘minoti hamda belgilangan imtiyozlari tizimi yangi tartib belgilangunga qadar saqlanib qolinadi;

Ichki ishlar vazirligiga bir oy muddatda ichki ishlar organlari qo‘riqlash bo‘linmalari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihisini kiritish vazifasi yuklatilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (D.Karimov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida qo‘riqlash faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 4-martdagi PF–42-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov